

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA OTA-ONAGA HURMAT MASALASI

Anorgul GULOVA,

*Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası
dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15291018>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida ota-onaga hurmat masalasi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Muhaddis, ma’naviyat, ma’rifat, tafakkur, jamiyat, ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема уважения к родителям в социально-антропологических воззрениях Алишера Навои.

Ключевые слова: Мухаддисы, духовность, просвещение, мысль, общество, образование.

Annotation. This article analyzes the issue of respect for parents in Alisher Navoi’s socio-anthropological views.

Key words: Muhaddis, spirituality, enlightenment, thought, society, education.

Alisher Navoiy o‘z asarlari qahramonlari tilidan ota-onaning borligini g‘animat bilib, ularning hurmatini joyiga qo‘yish kerakligi, iloji boricha ular xizmatida bo‘lib, duolarini olish lozimligini, ayniqsa, onai zorga alohida ehtiromda bo‘lish darkorligini bot-bot uqtiradi.

Manga zulm o‘ldi falakdinki chu bo‘ldung bemor,

Kerak erdiki men o‘lsam boshing uzra g‘amxor.

Sharbating ezsam edi shirai jonim qo‘shub,

Ichururga qilibon jahd nekim mumkin bor.

Ham g‘izo men kerak erdiki tutub ollingda,

Rag‘bat aylarga desam erdi muloyim guftor.

Gah boshingni tuzatib, goh ayog‘ingni yopib,

Evrulub boshinga farzandlig‘ aylab izhor, [Алишер Н. 5:491] –

deya Iskandar singari oh-voh etgani natija bermas.

Bukim men-men, manga o‘lmak dag‘i hayf,

Ulus ahvolima kulmak dag‘i hayf.

Sen ar dardimdin o‘lsang ranjfarsoy,

Manga ul ranju g‘amdin voyu yuz voy!

Meni rozilig‘ingdin qilma navmid,

Manga do‘zah o‘tini solma jovid [Алишер Н. 7:456], –

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

deb Farhoddek faryod qilishdan foyda kelmas. Navoiy hazratlari valad vujudi samin la’lining koni bo’lmish ota-onani ko’p furqatda qoldirmaslik, yiroqlik bilan ularni mehnatga qo’ymaslik, o’z ko’nglicha, ulardan bemaslahat boshi oqqan tomonga ketmaslik, issiq o’rnini sovutmaslik, begonani uy sori yovutmaslikka chaqiradi. Ota-onani ranjituvchi ish qilmaslik, har dam o’zini, ko’ngil bilan ko’zini asramoqqa undaydi. Binobarin, ko’ngil pok bo’lsa, insonning barcha a’zolari salomat bo’ladi. Ko’z esa dil oynasi, sevgi-muhabbat dilga mehmon bo’ladimi, biror xursandchilik va yoki musibat yuzlanadimi, inson o’zligini asrashi lozimligi qayta-qayta uqtiriladi [Mualliflar jamoasi. 10:122].

Ne qilg’on xayolim bori xom emish,
Havas jomi ko’nglumga oshon emish.
Kerak erdi, to kirdi mag’zing’a hush,
Xirad toki soldi dimog’img’a jo’sh.
Demon qilsam erdi o’g’ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.
Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq [Алишер Н. 6:592].

Mazkur parchada Alisher Navoiy “olam ochmoq”ni o’ziga maqsad qilgan, ayni shu maqsad uchun muhtaram onaga ayriliq azobini ravo ko’rgan, oqibatda hukmdorlik shuhrati farzand sifatida onasi oldida “kiprik bila chun yo’lin supurib”, qullik qilish, yer o’pib xizmatini qilishga aslo teng bo’lmasligini anglab yetgan shoh Iskandar nomidan farzand uchun oyu quyosh bo’lgan ota-onaga xoki dargohlik aylamoqlik aslida aynan shohlikning o’zi ekanligiga iqrar bo’ladi.

Qur’oni Karim va hadisi sharifda e’tirof etilganidek har bir inson uchun ota-ona oldida farzandlik burchini ado etmoq, ularning og’irini yengil qilib xizmatiga shay turmoq, ko’ngillarini olmoq, xoki poyi bo’lib qullik bajo qilmoq eng oliy saodatdir. Buni esa faylasuf shoir shohlik, deya e’tirof etadi. Bu falsafani har bir fanzand o’z vaqtida tushunib yetsa, shunga qarab harakat qilsa, nafaqat o’z ota-onasiga, o’ziga ham yaxshilik qilgan bo’ladi. Xalq orasida “qaytar dunyo” degan ibora bejizga aytilmagan. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, “shoxning farzandi guldur, naxlig’a farzand shox”. Vaholanki, farzand ko’z oldida ota-onasining o’z otonalariga munosabati ayni ibrat maktabidir.

“Ista ato yo’lida jon fido qilmoq,
Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bil oni ato-anog‘a ehson qilmoq” [Алишер Н. 8:168].

Yuqorida keltirilgan parcha “Nazm-ul javohir” asaridan olingan bo‘lib, unda Alisher Navoiy farzandini lozim topilsa ota yo‘lida jon fido qilishga, onaga ham imkoni boricha ko‘p va xo‘p xizmat qilishga da‘vat qiladi.

“Onalarning oyog‘i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog‘i.

Ravza bog‘i visolin istar esang,

Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i” [Алишер Н. 2:264].

Mazkur misralar “Arba‘in” [Алишер Н. 1:260] asaridan o‘rin olgan bo‘lib, alloma “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” hadisini nazmda ifodalagan. Bu bilan hazrat Navoiy dilbandiga biror g‘am yetsa, shomdan tonggacha joni mahzun, tongdan shomga dovur ashki gulgun, anduh o‘ti dimog‘ini mahrur etgan, oq sochi yuziga kofur sochgan onaizor chekkan azoblarini ko‘tarishga tog‘lar ojiz ekanligini ta‘kidlab, farzandlar munis va muhtaram volidaning poyini har qancha tavof qilsa, shuncha oz ekanligini, ularning ko‘ngillarini olib, qancha xushnud etsak, jonimizni poyiga poyandoz qilib to‘shasak, oldimizda jannatning jilva qilishiga vosil bo‘lamiz, deydi.

Muazzam asarlari odob qomusi bo‘lgan alloma ijodida oila masalasiga ham alohida yondashiladi. Har bir kishi oilada ham odob qonun-qoidalariga qat‘iy rioya etmog‘i darkor. O‘z navbatida oila boshlig‘i turmush o‘rtog‘i hamda farzandlari uchun javobgardir. Farzandlar o‘z ismlaridan uyalib yurmasliklari uchun ota-ona farzand dunyoga kelganda, avvalo, chiroyli ism qo‘ymoqligi farz ekanligini bayon qilinadi:

Birisi qo‘ymoqlik erur yaxshi ot,

Kim desalar yetmagay andin uyot [Алишер Н. 9:158].

Farzandga ta‘lim berish ota-onaning muhim burchlaridan ekanligini Alisher Navoiy quyidagi misralarda ham bayon etadi:

Qilmoq erur biri muallim talab,

Qilg‘ali ta‘lim anga ilmu adab [Алишер Н. 9:159].

Bu bilan u ilmi kishi hayot yo‘llarida qoqilmaydi, o‘z ilmiga tayanib, yuzaga kelgan har qanday muammo yechimini osonlik bilan hal qiladi, yaxshi-yomonni farqlab, umrini ezgu ishlarga bag‘ishlaydi deydi. Hadisi sharifda ta‘kidlanganidek “Har bir narsaning o‘z yo‘li bor. Jannatning yo‘li ilmdir”.

Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub” asarida umuminsoniy qadriyat bo‘lgan ishqni uchga bo‘ladi. Birinchisi avom, ya‘ni oddiy kishilar uchun keng tarqalgan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ishq. Ishqning ikkinchi xili xos kishilarga tegishli. Ular yuksak fazilatli insonlar bo‘lib, pokligi bilan ajralib turadi va pok yuzli kishilarga oshiq bo‘lib, ular jamolidan bahra oladilar. Va nihoyat, ishqning uchinchi xili – siddiqlar ishq bo‘lib, ular Haqni, Alloh vasli va jamolini ko‘rishni orzu qiladilar. Bu yo‘lda hatto halok bo‘ladilar [Алишер Н. 4:70].

“Qays maktabga borib tahsil olib yurganida Laylini ko‘rgach, holatida o‘zgarish paydo bo‘ladi, ya’ni unga nisbatan ishq-muhabbat paydo bo‘ladi. Bu uchrashuvni Navoiy shunday tasvirlaydi:

Ya’ni ko‘rub oni Qays mahzun,
Ruxsorini qildi qahrabogun.
Ham chehrasi rangi qahrabodek,
Ham ko‘nglida qo‘zg‘alon sabodek.
Har dam yiqilurg‘a jismi moyil,
Hushi dog‘i lahza-lahza zoyil,
Topib anga jismi notavon za’f,
Ko‘nglida dog‘i zamon-zamon za’f.
Tag‘yir pazir ko‘zga holi,
Ko‘zga neki, har dam o‘zga holi.
Chun zo‘r keturdi ishq bebok,
Avval qadah oldi hushini pok” [Алишер Н. 3:75].

Bu holatga botiniy nuqtai nazardan qarajak, majoziy ishqning namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Lekin zohiriy tomondan qaralsa, unda avom ishq tasvirlanayotganini payqash mumkin” [Алишер Н. 11:327-328].

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi bosh qahramonlar Farhod hamda Shirin munosabatlaridagi sevgi ham majoziy ma’no kasb etadi. Shirin timsolida Yaratganga bo‘lgan muhabbatga ham ishora qilinadi. Ikkala dostonda ham dunyoviy va ilohiy ishq hamohang tarzda ifodalangan. Ya’ni ilohiy ishqqa erishish uchun dastlab dunyoviy ishqni boshidan o‘tkazish kerak, degan g‘oya ustuvorlik qiladi.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” asarlaridagi Layli va Shirin kabi qahramonlar yetuk shaxs qiyofasida namoyon bo‘ladi.

Dostonda Mehinbonu adolatli, el-yurt g‘amini yeydigan, davlatni obod qilish va ilm-fanni rivojlantirish uchun fidoyilik ko‘rsatadigan, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida jamlagan hukmdor sifatida gavdalantiriladi. U Farhod bilan Shiringa yaqindan ko‘mak beradi. Uning xizmatidagilar ham o‘zligini anglagan, ilm-fanga ishtiyoqi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

baland, fozil insonlar sifatida ta'riflanadi. Mehinbonu Farhod bilan Shirin sevgisini qadrlaydi, ularga har tomonlama yordam beradi. Mehinbonu saroyidagi qizlar ham komila, oqila insonlar sifatida talqin qilinadi:

Biri ash'or bahri ichra g'avvos,
Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hayat ruqumig'a qalamkash.
Birining shevasi ilmi haqoyiq,
Balog'atda biri aytib daqoyiq.
Biri tarixda, so'z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Hisob ichra birining zihni borib
Muammoda birisi ot chiqorib [Алишер Н. 7:272]...

Ayon bo'ladiki, Mehinbonu qo'l ostidagi o'n nafar gulruxsor qiz axloq-odobda tengi yo'q, har biri biron ilm va san'at sohasini yoki kasb-hunarni mukammal egallagan yetuk, oqila va bilimdon ayollar.

Navoiy olamning asosini muhabbatda ko'radi. Kishi uchun hayot yo'llarida hamroh, hamdard suyukli yor bo'lishi kerakligini uqtiradi:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun [Алишер Н. 9:191].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Арбаъин. Асарлар. Ж.15. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 260.
2. Алишер Навоий. Арбаъин. МАТ. 20 жилдлик. Ж. 16. –Тошкент: Фан, 2000. – Б. 264.
3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ.20 жилдлик. 9-жилд. –Тошкент: Фан, 1992.– Б. 75.
4. Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. МАТ. 20 жилдлик. Ж. 14. – Тошкент: Фан, 1998. –Б. 70.
5. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 жилдлик, 4-жилд. –Тошкент: Фан, 1989, – Б. 491.
6. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жилдлик. 11-жилд. –Тошкент: Фан, 1993.– Б. 592.
7. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик, 8-жилд. –Тошкент: Фан, 1991, – Б. 456.